




Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

SHARQ MASH'ALI

Jurnal veb-sayti:
<https://orientalstudies.uz/index.php/ot>



YETTISHAHAR DAVLATI ELCHISI SAID YOQUBXON XUSUSIDA

Raxima Alimova

Dotsent, tarix fanlari nomzodi,
 Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
 Toshkent, O'zbekiston

MA QOLA HA QIDA

Kalit so'zlar:

Yettishahar davlati, Qo'qon xonligi, Turkiston general-gubernatorligi, Yoqubbek Badavlat, elchilik, Said Yoqubxon, Sankt-Peterburg, Toshkent, Qashqar.

Annotatsiya: Mazkur maqola Qo'qon xonligida tarixida elchilikka tayinlangan, bu borada katta tajribaga ega bo'lgan Said Yoqubxonning elchilik faoliyati to'g'risida, keyinchalik Sharqiy Turkistonda 1865-1877 yillarda mavjud bo'lgan Yettishahar davlati hukmdori Yoqubbek Badavlat davrida Said Yoqubxonning elchilik qilishi, uning xorij davlatlariga, jumladan Turkiya va Sankt-Peterburgga, Sankt-Peterburgdan Toshkent orqali Qashqarga qaytib borganligi tarixi yoritiladi. Qolaversa Said Yoqubxonning elchilik faoliyatining manbalarda, tadqiqotlarda va arxiv hujjatlarida yoritilishini o'rganiladi. Xususan O'zbekiston Milliy arxivi tarixiy fondi hujjatlari orasida qashqarlik elchi Said Yoqubxonning elchilik missiyasi bilan bog'liq yig'ma jillardagi ma'lumotlar tahlil qilinadi.

SAID YAQUBKHAN, AMBASSADOR OF THE SEVEN CITY STATES

Rakhima Alimova

Associate Professor, Candidate of History,
 Tashkent State University of Oriental Studies
 Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: State of Ettishahar, Khanate of Kokan, Governor General of Turkestan, Yakubbek Badavlat, embassy, Said Yakubkhan, Sankt-Petersburg, Tashkent, Kashkar.

Abstract: This article is about the ambassadorial activities of Said Yaqub Khan, who was appointed as an ambassador in the history of the Kokan Khanate, who had a lot of experience in this regard, and later, the ambassadorship of Said Yaqub Khan during the reign of Yaqubbek Badavlat, the ruler of the State of Yettishahar, which existed in Eastern Turkestan in 1865-1877, his ambassadorship to foreign countries, including Turkey and Saint-Petersburg. , the history of his return to Kashgar from Saint Petersburg via Tashkent will be covered. In addition, the coverage

of Said Yaqubkhan's embassy activities in sources, researches and archival documents is studied. In particular, among the documents of the historical fund of the National Archives of Uzbekistan, the information in the collective volumes related to the ambassadorial mission of the Kashgar ambassador Said Yaqubkhan is analyzed.

САИД ЯКУБХАН, ПОСОЛ СЕМИ ГОРОДОВ-ГОСУДАРСТВ

Алимова Рахима Русковна
Доцент, кандидат исторических наук,
Ташкентский государственный университет востоковедения
Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:

Государство Еттишахар, Кокандское ханство, Туркестанское генерал-губернаторство, Якуббек Бадавлат, посольство, Said Якубхан, Санкт-Петербург, Ташкент, Кашкар.

Аннотация: Данная статья посвящена посольской деятельности в истории Коканского ханства Саида Якубхана, который был назначен послом и имел большой опыт в данной деятельности. Дальнейшая деятельность Said Якуб-хана в государстве Якуббека Бадавлата Еттишахар существовавшего в 1865-1877 годах. Так же будет освещена история его путешествия по зарубежным странам, в том числе в Турции и в Санкт-Петербург, и его путешествие из Санкт-Петербурга в Кашкар через Ташкент. Кроме того, в статье предпринята попытка раскрыть посольскую деятельность Said Якубхана в письменных источниках, исследованиях и архивных документах. В частности, на основе документов из архивного фонда Национального архива Узбекистана, исследуются сведения, связанные с посольской миссией кашгарского посла Said Якубхана.

KIRISH

Sharqiy Turkistonda tashkil topgan Yettishahar davlati¹ (1865-1877) Rossiya imperiyasi va uning tarkibidagi Turkiston general-gubernatorligi bilan elchilik aloqalarini o‘rnatganligi xususida tarixiy hujjatlar guvohlik beradi. Yettishahar uyg‘ur davlati hukmdori bo‘lgan Yoqubbek, Badavlat va Otaliq g‘ozi unvonlariga ega bo‘lgan. U asli 1820 yilda Pskentda tug‘ilgan, 1877 yilda Sharqiy Turkistonning Ko‘rla shahrida vafot etgan. Yoqubbekning otasi xo‘jandlik Ismatulla – kasallarni o‘qib davolaydigan mulla bo‘lgan². U Toshkentdan 50 verst³ uzoqlikdagi Pskentga kelib, shu yerda pskentlik qizga uylangan va bu oilada Yoqubbek dunyoga kelgan. Ammo yoshligidan ota-onasidan yetim qolgan Yoqubbekni Pskent orqali o‘tib ketayotgan qo‘qonlik o‘zi bilan shahriga olib ketgan. Qo‘qonda u Madalixon davrida chilimchi

¹ Мухаммад Азиз Маргилоний. Тарихи Азизий: (Фаргона чор мустамлақаси даврида) //Сўзбоши ва изоҳлар муаллифлари: Ш. Воҳидов, Д. Сангирова. – Т.: «Маънавият», 1999. – Б. 14, 91. [Muxammad Aziz Margiloniy. Tarixi Aziziy: (Farg‘ona chor mustamlakasi davrida)//So‘zboshi va izohlar mualliflari: Sh. Vohidov, D. Sangirova. – T.: “Ma’naviyat”, 1999. – B. 14, 91.]

² А.Н.Куропаткин. Кашгарија. Историко-географический очерк страны, ея военные силы, промышленность и торговля. – СПб., 1879. – С. 133-134. [A.N.Kuropatkin. Kashgariya. Istoriko-geograficheskiy ocherk strani, yeya voyenniya sili, promishlennost i torgovlya. – SPb., 1879. – S. 133-134.]

³ Verst – masofa o‘lchov dirligi. 1 verst 1066,8 metrga teng. 50 verst 53,340 km bo‘ladi.

mansabida bo‘lgan Muhammadkarim qoshqa xizmatiga kiradi. Muhammadkarim qoshqaning Xo‘jand hokimi etib tayinlanishi uning qo‘l ostidagilarga ham ta’sir ko‘rsatadi. Tog‘asining Toshkent qozisi bo‘lib tayinlanishi va singlisining Toshkent hokimi Normuhammadga turmushga chiqishi munosabati bilan Yoqubbekning mavqeい tez o‘sgan, xon o‘rdasida mahram, keyinchalik ellikboshi, yuzboshi, ponsod (beshyuzboshi) lavozimlarida ishlagan, Chinoz va Avliyoota (1846)ga, Oqmachit (1847)ga bek qilib tayinlangan⁴. U Toshkentga kelib, o‘sha davrdagi barcha siyosiy kurashlarda faol qatnashib, tanila boshlaydi. So‘ng Chimkentga jo‘natilgan, u yerda rus qo‘shinlariga qarshi kurash uni yana-da mashhur qilgan. Shu davrda Toshkentga Qashqardan xat-xabar kelgan bo‘lib, bu xatda sharqiy turkisonlik xojalardan bo‘lmish Jahongirxo‘ja o‘g‘li Buzrukxo‘jani va unga qo‘shib bir qancha askar so‘rab, murojaat qilgani aytildi⁵. Alimqul esa, elchiga javoban Buzrukxo‘ja bilan birga Qashqarga Yoqubbekni ham jo‘natgan⁶. U 66 kishilik otryad bilan Toshkentdan yordam berish uchun olib ketilgan⁷.

1864 yil oxirida Buzrukxon Yoqubbek va Alimqulning qarindoshi bo‘lmish Aldash hamrohligida Qashqarga yo‘lga chiqqan. Buzrukxo‘ja Qashqarga 1865 yil yanvar oyida yetib kelgan. So‘ng oradan ko‘p o‘tmay, xo‘ja Qashqar xonligining xoni, deb e’lon qilingan⁸. Yoqubbek esa botirboshi qilib tayinlangan. U qo‘shin bilan Qashqardagi manjur-xitoy gornizoni joylashgan Yangishar qal’asini qo‘lga kiritadi. Yoqubbek 1865 yil bahorda Yangi-Hisor va Yangisharni, oktyabrda Yorkendni Qashqarga qo‘shib oladi. Shu davrda Qashqar, Yangi-Hisor, Yorkend okruglari va Maralboshi tumani Yoqubbek qo‘l ostida birlashtiriladi. U 1866 yil Xo‘ton, 1867 yil Oqsuv va Qorasharni bosib oladi va shu bilan Qashqarning birlashtirilishi yakuniga yetadi. Shu tariqa 1867 yilda Kucha, Xo‘ton va Qashqar xonligini birlashtirib yagona davlat – Yettishahar tashkil topadi. Yoqubbek Yettishahar davlatining xoni deb e’lon qilinadi⁹.

Yoqubbek Sharqiy Turkistonni o‘z qo‘li ostida birlashtirish harakatini muvaffaqiyatli nihoyasiga yetkazgandan so‘ng, mamlakatning siyosiy va iqtisodiy qudratini mustahkamlashga

⁴ А.Н.Куропаткин. Кашгария. Историко-географический очерк страны, ея военные силы, промышленность и торговля. – СПб., 1879. – С. 133-134. [A.N.Kuropatkin. Kashgariya. Istoriko-geograficheskiy ocherk strani, yeya voyenniya sili, promishlennost i torgovlya. – SPb., 1879. – S. 133-134.]

⁵ Ш.Қўлдошев, Б.Хайдаров. Муҳаммад Ёқуббек – Хитойдаги Еттишахар давлатининг Пскентлик хукмдори // <https://shosh.uz/muhammad-yoqubbek-hitoydagi-ettishahar-davlatining-pskentlik-hukmdori-1-maqola/> [Sh.Qo‘ldoshev, B.Haydarov. Muhammad Yoqubbek – Xitoydagι Yettishahar davlatining Pskentlik hukmdori // <https://shosh.uz/muhammad-yoqubbek-hitoydagi-ettishahar-davlatining-pskentlik-hukmdori-1-maqola/>]

⁶ A.N.Kuropatkin. Kashgariya. Istoriko-geograficheskiy ocherk strani, yeya voyenniya sili, promishlennost i torgovlya. – SPb., 1879. – S. 134-135.

⁷ Abdulkadir Macit. Başbakanlık osmanlı arşiv belgeleri işığında XIX yüzyıl osmanlı-hokand hanlığı münasebetleri. (Yüksek Lisans Tezi). – İstanbul, 2008. – B. 29.

⁸ Ш.Қўлдошев, Б.Хайдаров. Муҳаммад Ёқуббек – Хитойдаги Еттишахар давлатининг Пскентлик хукмдори // <https://shosh.uz/muhammad-yoqubbek-hitoydagi-ettishahar-davlatining-pskentlik-hukmdori-1-maqola/> [Sh.Qo‘ldoshev, B.Haydarov. Muhammad Yoqubbek – Xitoydagι Yettishahar davlatining Pskentlik hukmdori // <https://shosh.uz/muhammad-yoqubbek-hitoydagi-ettishahar-davlatining-pskentlik-hukmdori-1-maqola/>].

⁹ Исиев Д. А. Уйгурское государство Йэttiшар (1864-1877). - М.: Наука, 1981. - С. 23. [Isiyev D. A. Uygurskoye gosudarstvo Yettishar (1864-1877). - M.: Nauka, 1981. - S. 23.]

kirishadi. Yoqubbek Yettishahar davlatida juda faol yaratuvchilik siyosati yuritadi, chunki uning hukmronligi davrida aynan mahalliy aholining madaniyati yuksaladi. U ko‘plab masjidlar, yo‘llar va ko‘priklar qurdiradi. Juda ko‘p asarlar turkiy tilga tarjima qilinadi¹⁰. Shu ma’noda Yoqubbek mamlakatni birlashtirish va mustaqil davlat tuzishdek murakkab jarayonda qo‘shti davlatlar bilan tinch va do‘stona munosabat o‘rnatishga harakat qilgan.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, Sharqiy Turkistonda o‘z ta’sirini mustahkamlab qolishdan Rossiya ham, Angliya ham manfaatdor edi. Shu maqsadda Angliya Rossianing Sharqiy Turkistondagi har qanday harakatlarini ziyraklik bilan kuzatib turgan, iloji boricha unga Yettishahar davlatiga ta’sir ko‘rsatishiga xalaqit berib turgan. Bu kurashda London Yoqubbekning yaqin kishisi Yoqub xonga suyangan. Sharqiy Turkiston Rossiya uchun ham, Angliya uchun ham faqat tovarlarni sotadigan bozorgina emas, balki va strategik plasdarm vazifasini o‘tagan¹¹.

Yoqubbek «...nafaqat Sin imperiyasi bilan, qolaversa, Qo‘qon xonligi bilan toki uni chor Rossiyasi yo‘q qilguncha faol siyosat olib boradi. Yana u elchilarini Hindistonga va Britaniya qirolichasi Viktoriya huzuriga jo‘natib, undan Yettishahar davlati mustaqilligi va erkinligini himoya qilish uchun yordam so‘raydi”¹².

Shunday sharoitda Yoqubbek mamlakatning tashqi siyosiy yo‘nalishlarini belgilab olishda, davlatning geografik joylashuvini inobatga olib, Turkiston general-gubernatorligi bilan chegaradosh bo‘lganligi uchun Rossiya bilan yaqinlashishni ma’qul ko‘radi. U Turkiston general-gubernatorligi tashkil qilingan 1867 yilning yozida polkovnik V.A.Poltoraskiyning elchisini qabul qiladi. Elchi ikki davlat o‘rtasida savdo aloqalarini o‘rnatish taklifi bilan kelgan edi. Muzokaralardan so‘ng Yoqubbek Verniy (hozirgi Olma-Ota) shahriga o‘zining shaxsiy kotibi To‘ra Oxunni savdo aloqalari masalalarini muhokama qilish maqsadida jo‘natadi¹³.

Yettishahar davlati hukmdori Yoqubbek mamlakatning siyosiy qudratini mustahkamlash maqsadida o‘z elchilarini turli mamlakatlarga, xususan, Turkiya, Rossiya, Turkiston general-gubernatorligiga yuborgan. Yoqubbek Badavlat mohir davlat arbobi sifatida elchilarni tanlashga alohida e’tibor qaratgan. Buni katta tajriba egasi Said Yoqubxon elchiligi misolida ko‘rshimiz

¹⁰ Қўқон хонлиги. Mart 22, 2023/CentralAsian Analitic Netwook. <https://www.uzanalytics.com/tarix/10617/> [Qo‘qon xonligi. Mart 22, 2023/CentrralAsian Analitic Netwook. <https://www.uzanalytics.com/tarix/10617/>].

¹¹ Исиев Д. А. Уйгурское государство Йэттишар (1864-1877). - М.: Наука, 1981.- С. 34. [Isiyev D. A. Uygurskoye gosudarstvo Yettishar (1864-1877). - M.: Nauka, 1981.- S. 34.].

¹² Қўқон хонлиги. Mart 22, 2023/CentralAsian Analitic Netwook. <https://www.uzanalytics.com/tarix/10617/> [Qo‘qon xonligi. Mart 22, 2023/CentrralAsian Analitic Netwook. <https://www.uzanalytics.com/tarix/10617/>] [Qo‘qon xonligi. Mart 22, 2023/CentrralAsian Analitic Netwook. <https://www.uzanalytics.com/tarix/10617/>]

¹³ Исиев Д. А. O’sha asar. 1981.- S. 35. [Isiyev D. A. O’sha asar. 1981.- S. 35.].

mumkin¹⁴. Dastlab Said Yoqubxon to‘ra 1858 yili Qo‘qon xoni Mallaxonning turk sultoniga yuborilgan Mirzajon Afandi elchiligida kotib lavozimida Istambulda bo‘lgan. 1864 yil kuzida Qo‘qon xonligining nufuzli shaxslaridan biriga aylangan Said Yoqubxon to‘ra Qo‘qon xonligi amirlashkari Mullo Aliqulining turk sultoniga yuborgan elchiligiga rahbar sifati tayinlanadi¹⁵ va u 1865 yil aprel oyi boshlarida Xiva va Eron orqali Istanbulga yetib borgan¹⁶ hamda 1867 yilda Orenburg orqali Qo‘qonga qaytib keladi. 1869 yilda Said Yoqubxon to‘ra usmonli turk imperiyasi bosh vaziri Mehmed Rushdu poshshoning qabulida bo‘ladi. 1870 yil boshida Said Yoqubxon Istanbuldan chiqib, Qoshg‘arga borib Yoqubxonning xizmatiga kirgan¹⁷. Yoqubbek Badavlatning 1872 va 1875 yillarda usmonli turk imperiyasiga yuborilgan elchiliklariga ham Said Yoqubxon to‘ra rahbarlik qiladi. 1872 yil Said Yoqubxon Qashqarga qaytadi¹⁸. 1875 – yilgi elchilik yakunida Said Yoqubxon to‘ra Qashqarga Sankt–Peterburg orqali qaytadi. Natijada 1876 yilda u Rossiya imperatori Aleksandr II, harbiy vazir D. Milyutin bilan hamsuhbat bo‘ladi¹⁹.

O‘zbekiston Milliy arxivi fondlarida Said Yoqubxon elchiligining Sankt–Peterburgdan Toshkent orqali Qashqarga qaytishi bilan bog‘liq yig‘ma jildlarda muhim ma’lumotlar saqlanib qolgan. Ammo elchining qachon, qaysi yo‘l orqali Peterburga borganligi haqida hujjatlarida ma’lumotlar mavjud emas.

Yettishahar davlati hukmdori Yoqubbek Badavlat Rossiya imperiyasi va uning tarkibidagi Turkiston general-gubernatorligi bilan yaqin qo‘schnichilik munosabatlarini yo‘lga qo‘yish maqsadida Rossiya va Turkiston general-gubernatorligiga elchilarni jo‘natgan. Bu elchilik munosabatlarining olib borilganligi arxiv hujjatlarida o‘z aksini topgan. Haqiqatdan O‘zbekiston Milliy arxivi fondlarida Yettishahar davlati hukmdori Yoqubbekning elchisi Said Yoqubxonning Peterburgdan qaytayotganligi bo‘yicha bildirishnomalar, yo‘l xarajatlari bilan bog‘liq mablag‘lar masalalarida qayd qilingan telegrammalar va yozishmalar, hisobotlar mavjud. Ulardan biri Verniy shahridagi Yettisuv harbiy okrugi mahkamasi tomonidan 1875 yil 4 sentyabrdagi 1315-sonli Turkiston general-gubernatoriga yozilgan bildirishnomasi hisoblanadi²⁰.

¹⁴ Abdulkadir Macit. Başbakanlık osmanlı arşiv belgeleri işliğinde XIX yüzyıl osmanlı-hokand hanlığı mənasebetleri. (Yüksek Lisans Tezi). – İstanbul, 2008. – B. 146, 171-172.

¹⁵ Миркомил Мирмақсудов. Турк султони, рус императори ва Буюк Британия бош вазири билан кўришган қози. <https://teletype.in> [Mirkomil Mirmaqsudov. Turk sultoni, rus imperatori va Buyuk Britaniya bosh vaziri bilan ko‘rishgan qozi. <https://teletype.in>].

¹⁶ Abdulkadir Macit. Başbakanlık osmanlı arşiv belgeleri işliğinde XIX yüzyıl osmanlı-hokand hanlığı mənasebetleri. (Yüksek Lisans Tezi). – İstanbul, 2008. – B. 146.

¹⁷ Abdulkadir Macit. Başbakanlık osmanlı arşiv belgeleri işliğinde XIX yüzyıl osmanlı-hokand hanlığı mənasebetleri. (Yüksek Lisans Tezi). – İstanbul, 2008. – B. 40.

¹⁸ Abdulkadir Macit. Başbakanlık osmanlı arşiv belgeleri işliğinde XIX yüzyıl osmanlı-hokand hanlığı mənasebetleri. (Yüksek Lisans Tezi). – İstanbul, 2008. – B. 40.

¹⁹ Миркомил Мирмақсудов. Турк султони, рус императори ва Буюк Британия бош вазири билан кўришган қози. <https://teletype.in> [Mirkomil Mirmaqsudov. Turk sultoni, rus imperatori va Buyuk Britaniya bosh vaziri bilan ko‘rishgan qozi. <https://teletype.in>].

²⁰ [Fond I-1, ro‘yxat 20, yig‘ma jild 8420.

Undagi xabarda 1875 yil 3 sentyabrda 1017-soni Peterburgdan Qashqarlik elchi Yoqubxondan olingan telegrammaning nusxasini janobi oliylari (Rossiya imperatori Aleksandr II (1855-1881)ga jo‘natayotgani ma’lum qilingan²¹. Elchining xoxishiga ko‘ra, telegrammaning asl nusxasi turk tiliga tarjima qilinib, Norin harbiy boshlig‘i orqali Badavlatga (Yettishahar hokimi Yoqubbek) jo‘natilgan. Matnda elchining Peterburgga kelganligi, podsho tomonidan lutfan qabul qilinganligi, imperatorning ixtiyori bilan Kaufman bilan uchrashish uchun Toshkent orqali yaqinda qaytishi xabari berilgan²². Yana bir telegrammada Qashqar elchisi 1875 yil 26 oktyabrdan Sankt-Peterburgdan bosh shtab amaldori Chetverniskiy hamrohligida yo‘lga chiqqanligi hamda Samara, Orenburg, Kazalinsk orqali Toshkentga borishi aks etgan²³. Arxiv hujjatida elchining Toshkent orqali Qashqarga qaytishi sabablari qilib, uning asli Toshkentda tug‘ilganligi, u yerda ko‘plab qarindoshlari va tanishlari borligi ekanligi ko‘rsatilgan²⁴. Elchi imperator nomidan Yoqubbek Badavlatga maktub olib ketgan²⁵. Said Yoqubxon Osiyo Departamenti boshlig‘iga bir necha marta murojaatida Qashqarga Rossiya o‘z vakilini jo‘natishi, vakil Qashqarda rus savdogarlarining savdo ishlarini nazorat qilishi va kelib chiqishi mumkin bo‘lgan tushunmovchiliklarni o‘z vaqtida hal qilish imkoniyatini berar edi, degan mazmun yo‘g‘rilgan²⁶. Elchi shu bilan birga Toshkentdan rus vakilini o‘zi bilan birga olib ketishga tayyorligi, olyi hukmdorning bu taklifni qabul qilishi foydadan xoli emasligini bildirgan²⁷. Hujjatlar orasida elchining 1876 yil 9 yanvarda To‘qmoqqa yetib kelganligi, uning Avliyootadan chiqib ketmasidan avval Badavlatdan xat olganligi, maktubda Xitoy bilan harbiy harakatlar bo‘layotganligi sababli elchi Qashqarga yetib kelganida uning Oqsuvdan qaytib kelmagan bo‘lishi mumkinligi ma’lum qilingan²⁸. Shu bilan birgalikda titulyar²⁹ maslahatchi Vetveniskiyning ma’lumotlariga ko‘ra, elchining yo‘lini yengillashtirish va tezlashtirish maqsadida To‘qmoqda qirg‘iz otlari va tuyalari tayyorlab qo‘yilganligi, otlarni almashtirish nuqtalarida tunash joylari hozirlab qo‘yilganligi bayon qilingan. Unda elchining 13 yanvar erta tongda To‘qmoqdan yo‘lga chiqishi va 17 yanvarda Noringa yetib borishi aytilgan³⁰. Norin Harbiy boshqarmasining Norin istehkomidan 1876 yil 31 yanvardagi 109-soni Yettisuv viloyati

²¹ Fond I-1, ro‘yxat 20, yig‘ma jild 8420. – V. 1.

²² Fond I-1, ro‘yxat 20, yig‘ma jild 8420. – V. 20.

²³ Fond I-1, ro‘yxat 20, yig‘ma jild 8420. – V. 3.

²⁴ Fond I-1, ro‘yxat 20, yig‘ma jild 8420. – V. 15.

²⁵ Fond I-1, ro‘yxat 20, yig‘ma jild 8420. – V. 16.

²⁶ Fond I-1, ro‘yxat 20, yig‘ma jild 8420. – V. 16.

²⁷ Fond I-1, ro‘yxat 20, yig‘ma jild 8420. – V. 16 or.-17.

²⁸ Fond I-1, ro‘yxat 20, yig‘ma jild 8420. – V. 35.

²⁹ Titulyar maslahatchi(Titulyarniy sovetnik) chin IX sinf fuqarolik amali. Bu holatda “titulyar” so‘zi rasmiy unvon bo‘lib, Petr I tomonidan 1722 yil 24 yanvarda tasdiqlangan. Rossiya da bu unvon 1884 yilga qadar armiyadagi kapitanga, 1884 yildan piyoda qo‘shin amaliga to‘g‘ri kelgan, Rossiya harbiy floti leytenantiga mos kelgan.

³⁰ Fond I-1, ro‘yxat 20, yig‘ma jild 8420. – V. 36.

harbiy gubernatoriga yozgan bildirishnomasidan ma'lum bo'lishicha, elchi Yoqubxonni 21 yanvarda Qashqar chegarasida 2 nafar ofitser kutib olgan³¹.

Boshqa bir yig'ma jilda yuqorida ko'rib o'tganimiz, Yettishahar davlati hukmdori Yoqubbekning elchisi Said Yoqubxon Sankt-Peterburgdan Qashqarga qaytayotib Toshkentga kelishi bilan bog'liq hujjatlar saqlanib qolgan bo'lib, undagi ma'lumotlar haqiqatdan ham Yettishahar davlati hukmdorining elchisi Sankt-Peterburgga borganligi va Toshkent orqali vataniga qaytishiga dalil bo'lib xizmat qiladi. Masalan, 1875 yil 3 sentyabrda Yettisuv gubernatoriga yaqin kunlarda elchining Sankt-Peterburgdan Toshkentga yo'lga chiqishini ma'lum qilgan³². 1875 yil 3 yanvardagi Chimkent uyezdi boshlig'inining xatida esa qashqarlik elchi Yoqubxonning 4 dekabrda Chimkent uyezdiga, 5 dekabrda Chimkent shahriga, 2 yanvarda Avliyootaga yetib kelganligi to'g'risida ma'lumot mavjud³³. 1875 yil 9 iyuldagagi Xo'jand uyezdidan jo'natilgan xatda Xo'jand shahri oqsoqoli Gadoyboy Toshkentdan Xo'jand orqali Qo'qonga ketgan Qashqar elchiligi to'g'risida ma'lumot qoldirgan³⁴. Hujjatda qashqarlik elchini titulyar maslahatchi Vetveniskiy kuzatib yurganligi bilan bog'liq ma'lumotlar o'rinni olgan. 1876 yil 12 yanvarda To'qmoqdan Turkiston general-gubernatori vazifasini bajaruvchiga yozilgan bildirishnomada Qashqar elchiligi 9 yanvarda To'qmoqqa eson-omon yetib kelganligi³⁵, unda Avliyootadan elchi jo'nab ketishidan avval o'zining hukmdoridan olgan xatida xitoyliklar bilan harbiy harakatlar bo'layotganligi sababli elchilar Qashqarga qaytib kelganlarida Badavlat Oqsuvdan Qashqarga yetib kelolmasligi xabar qilingan³⁶. 1876 yil 12 yanvardagi Vetveniskiyning Turkiston general-gubernatori vazifasini bajaruvchisiga yozgan bildirishnomasida Qashqar elchiligi 13 yanvarda To'qmoqdan yo'lga chiqib, 14 yanvarda kechga yaqin Noringa yetib borishi mumkinligi bayon qilingan³⁷. Turkiston general-gubernatori vazifasini bajaruvchisining 1876 yil 8 fevraldagagi bildirishnomasida 13 yanvarda To'qmoqdan chiqqan Qashqar elchiligi Norin istehkomiga 19 yanvarda muvaffaqiyatli yetib kelganligi eslatilgan³⁸. Qashqardan Turkiston general-gubernatori vazifasini bajaruvchi general-leytenant Kolpakovskiyga yozilgan xatda Sizning do'stona mazmundagi xatingizni 1876 yil safar oyining 21 kunida Oqsuvda oldim. Bu maktub ikki mamlakat o'rtasida do'stona munosabatlarning o'sishiga sababchi bo'ldi, deb yozilgan³⁹. 1876 yil 20 fevraldagagi Kolpakovskiy nomiga

³¹ Fond I-1, ro'yxat 20, yig'ma jild 8420. – V. 44.

³² Fond I-17, ro'yxat 1, yig'ma jild 9985. – V. 1.

³³ Fond I-17, ro'yxat 1, yig'ma jild 9985. – V. 18.

³⁴ Fond I-17, ro'yxat 1, yig'ma jild 9985. – V. 39.

³⁵ Fond I-1, ro'yxat 29, yig'ma jild 133. – V. 19; Fond I-1, ro'yxat 20, yig'ma jild 8420. – V. 35.

³⁶ Fond I-1, ro'yxat 29, yig'ma jild 133. – V. 19.

³⁷ Fond I-1, ro'yxat 29, yig'ma jild 133. – V. 20.

³⁸ Fond I-1, ro'yxat 29, yig'ma jild 133. – V. 41.

³⁹ Fond I-1, ro'yxat 29, yig'ma jild 133. – V. 44.

jo‘natilgan xatda Said Yoqubxonning mamlakatga muvaffaqiyatli yetib kelganligi xabar qilingan⁴⁰.

Ko‘rilgan yig‘ma jiddlardagi hujjatlar haqiqatdan ham Said Yoqubxonning elchilik bilan Sankt-Peterburgdan Toshkent orqali Qashqarga qaytib ketganligi, ulardagi ma’lumotlarda ko‘rsatilgan sanalar bir-birini takrorlashi va to‘ldirishi elchilik aloqalari bo‘lganligiga dalil bo‘lib xizmat qiladi. Ayrim arxiv hujjatlarida elchining ismi sharifi ko‘rsatilmay “qashqarlik elchi” deb berib ketilgan, ammo elchilik bilan bog‘liq ma’lumotlar qiyosiy o‘rganilganda “qashqarlik elchi” asli Said Yoqubxon ekanligi ma’lum bo‘ldi. 1875 yilda Turkiyaga uyuştirilgan elchilik yakunida Said Yoqubxon Qashg‘arga Sankt-Peterburg orqali qaytgan. U Sankt-Peterburgda Rossiya imperatori Aleksandr II, harbiy vazir D.Milyutin bilan uchrashgan.

Said Yoqubxonning keyingi faoliyatlariga e’tibor qilinsa, 1877 yilda Qashg‘ardagi harbiy siyosiy vaziyat og‘irlashganligi sababli muammoni diplomatik yo‘llar bilan hal qilish maqsadida Yoqubbek Badavlatning topshirig‘iga ko‘ra, u Hindiston, Istambul orqali Londonga elchi qilib yuborganligi ma’lum bo‘ladi. Ammo, muzokoralar borayotgan davrda Xitoy qo‘sishlari “Yettishahar” davlatiga bostirib kirib, 16 may kuni Turfon shahrini bosib olgach, Yoqubbek Badavlat 1877 yil 25 mayda vafot etgan. Bu xabar 1877 yil 16 iyul kuni Yoqubxoniga yetib borgan⁴¹. Shu bilan Yettishahar davlati tugatilgan, elchilik missiyasi shu yerda nihoyasiga yetgan. Said Yoqubxon to‘raning keyinchalik Kashmirda yashaganligi haqida ayrim ma’lumotlar mayjud⁴².

Yuqoridagilardan ma’lum bo‘ladiki, Yoqubxon Qashqardan Peterburgga to‘g‘ridan to‘g‘ri bormagan, balki aksincha u avval Turkiyaga elchi bo‘lib borgan va u yerdan Peterburgga safar qilgan. So‘ng Peterburgdan Toshkent orqali Qashqarga jo‘nagan. Shuning uchun bo‘lsa kerak, O‘zbekiston Milliy arxivi hujjatlarida Yoqubxonning qachon, nima maqsadda va qaysi yo‘llar bilan Peterburgga borganligi to‘g‘risida ma’lumotlar o‘z aksini topmagan ko‘rinadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Sharqiy Turkistondagi Yettishahar davlati hukmdori Yoqubbek Badavlat qisqa davrda mamlakatning siyosiy qudratini mustahkamlash va uning iqtisodiy ahvolini ko‘tarish maqsadida qo‘shti davlatlar va xorij mamlakatlari bilan do‘stona munosabatlar o‘rnatish borasida siyosat olib borgan. Shu maqsadda Yoqubbek Badavlat Rossiya va Turkiston general-gubernatorligi bilan diplomatik aloqalarni o‘rnatish hamda savdo-iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirish uchun o‘z elchilarini yuborgan. Mazkur elchilik munosabatlarida elchi Said Yoqubxonning xizmatlari alohida tahsinga sazovor bo‘lgan. Elchi Qo‘qon xonligi va Yettishahar davlati tarixida muhim

⁴⁰ Fond I-1, ro‘yxat 29, yig‘ma jild 133. – V. 46.

⁴¹ Мирмақсудов М. Турк сultonи, рус императори ва Буюк Британия бош vaziri билан кўришган ўзбек қозиси ким эканлигини биласизми. <https://teletype.in> [Mirmaqsudov M. Turk sultonı, rus imperatori va Buyuk Britaniya bosh vaziri bilan ko‘rishgano‘zbek qozisi kim ekانligini bilasizmi. <https://teletype.in>]

⁴² O‘sha joyda.

o‘ringa ega shaxs bo‘lgan. Said Yoqubxonning Qo‘qon xonligidagi faoliyatida orttirilgan ma’lum tajriba va mahorat uning kelgusi elchilik xizmatlarida qo‘l kelgan. Qashqar elchisining faoliyati bilan bog‘liq ma’lumotlar Milliy arxiv fondlarida saqlanib qolgan va o‘zining ahamiyatini yo‘qotmagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdulkadir Macit. Başbakanlık osmanlı arşiv belgeleri işığında XIX yüzyıl osmanlı-hokand hanlığı tıynasebetleri. (Yüksek Lisans Tezi). – İstanbul, 2008.
2. Исиев Д. А. Уйгурское государство Йэттишар (1864-1877). - М.: Наука, 1981. [Isiyev D. A. Uygurskoye gosudarstvo Yettishar (1864-1877). - M.: Nauka, 1981.]
3. Куропаткин А.Н. Кашгария. Историко-географический очерк страны, ея военные силы, промышленность и торговля. – СПб., 1879. [Kuropatkin A.N. Kashgariya. Istoriko-geograficheskiy ocherk strani, yeja voyenniya sili, promishlennost i torgovlya. – SPb., 1879.]
4. Мирмақсудов М. Турк султони, рус императори ва Буюк Британия бош вазири билан кўришган ўзбек қозиси ким эканлигини биласизми. <https://teletype.in> [Mirmaqsudov M. Turk sultoni, rus imperatori va Buyuk Britaniya bosh vaziri bilan ko‘rishgan o‘zbek qozisi kim ekanligini bilasizmi. <https://teletype.in>].
5. Мухаммад Азиз Маргилоний. Тарихи Азизий: (Фарғона чор мустамлакаси даврида) // Сўзбоши ва изоҳлар муаллифлари: Ш. Воҳидов, Д. Сангирова. – Т.: «Маънавият», 1999. [Muxammad Aziz Margiloniy. Tarixi Aziziy: (Farg‘ona chor mustamlakasi davrida) // So‘zboshi va izohlar mualliflari: Sh. Vohidov, D. Sangirova. – T.: “Ma’naviyat”, 1999.].
6. Хўжаев А. Шарқий Туркистон ва уйғур халқи... [Xo‘jayev A. Sharqiy Turkiston va uyg‘ur xalqi...]
7. Ходжаев А., Цинская империя, Джунгария и Восточный Туркестан, М., 1979.
8. Абдухолик Айтбоев. Еттишаҳар уйғур давлати. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-ye/yettishahar-ugur-davlati-uz/> [Abduxolik Aytboyev. Ettishahar uyg‘ur davlati. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-ye/yettishahar-ugur-davlati-uz/>].
9. Кўлдошев, Б.Ҳайдаров. Муҳаммад Ёқуббек – Хитойдаги Еттишаҳар давлатининг Пскентлик хукмдори // <https://shosh.uz/muhammad-yoqubbek-hitoydagi-ettishahar-davlatining-pskentlik-hukmdori-1-maqola/> [Qo‘ldoshev, B.Haydarov. Muhammad Yoqubbek – Xitoydagi Yettishahar davlatining Pskentlik hukmdori // <https://shosh.uz/muhammad-yoqubbek-hitoydagi-ettishahar-davlatining-pskentlik-hukmdori-1-maqola/>]
10. Кўқон хонлиги. Mart 22, 2023/ Centrall Asian Analitic Netwook. <https://www.uzanalytics.com/tarix/10617/> [Qo‘qon xonligi. Mart 22, 2023/ Centrall Asian Analitic Netwook. <https://www.uzanalytics.com/tarix/10617/>].
11. O‘zbekiston Milliy arxivi. Fond I-1, ro‘yxat 20, yig‘ma jild 8420.
12. O‘zbekiston Milliy arxivi. Fond I-1, ro‘yxat 29, yig‘ma jild 133.
13. O‘zbekiston Milliy arxivi. Fond I-17, ro‘yxat 1, yig‘ma jild 9985.